



O‘QUVCHILARDA LINGVISTIK KREATIV INTELEKTNI SHAKLLANTIRISH MUAMMOSINING NAZARIY VA USLUBIY TAHLILI

Jabborova Maftuna Komil qizi
Qarshi davlat universiteti doktoranti
E-mail: maftuna97jabborova@gmail.com. Tel: 998971026663

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘quvchilarda ingvistik kreativ intelektni shakllantirish muammosining nazariy va uslubiy jihatdan qay darajada o‘rganilganligi tahlil etilgan. Shuningdek, “intelekt”, “kreativlik”, “shakllanish” so‘zlarining mazmun-mohiyati haqida ma’lumot berilgan.

Аннотация: В данной статье анализируется, насколько теоретически и методологически изучена проблема формирования интеллектуального творческого интеллекта у студентов. Также дается информация о значении слов “интеллект”, “творчество”, “образование”.

Annotation: This article analyzes the extent to which the problem of formation of intellectual creative intellect in students has been theoretically and methodologically studied. Information is also given about the meaning of the words “intellect”, “creativity”, “formation”.

Kalit so‘zlar: ijodkorlik, qobiliyat, intelekt, yondashuv, shakllanish, shaxsiyat, ko‘nikma, kognitivlik.

Ключевые слова: творчество, способности, интеллект, подход, формирование, личность, умение, познание.

Key words: creativity, ability, intellect, approach, formation, personality, skill, cognition.

Kirish

O‘quvchilarda kreativ intelektni shakllantirish muammosi uzoq vaqt dan buyon pedagogika fani oldida turgan yechilishi lozim bo‘lgan masala bo‘lib kelmoqda. Ushbu muammo yuzasidan shu vaqtgacha bir qancha olimlar o‘z tadqiqot ishlarini amalga oshirishgan. O‘quvchilarda lingvistik kreativ intelektni shakllantirishni amaliy jihatdan amlaga oshirishimiz uchun biz avvalo “kreativlik”, “intelekt” va “shakllanish” atamasi tushunchalarini tahlil qilishimiz lozim. Ushbu tushunchalar mazmuni va uning bola shaxsidagi ahamiyati haqida bir qancha pedagog, psixolog olimlar o‘zlarining tadqiqot ishlarida muhim ma’lumotlar qoldirishgan.

Tahlil va muhokama

Olib borayotgan tadqiqot ishimizda, B.M.Teplov tomonidan tadqiq etilgan ilmiy dalillar juda muhim hisoblanadi. Uning fikricha, boladagi qobiliyatlar turlicha tabiatga ega va ushbu qibiliyatlar ma’lum bir ta’sir ostida rivojlanadi. Shuning uchun bola qibiliyatlarini shakllantirishda turli xil ish usullarini olib boorish lozim deydi. Shunday ekan ushbu qibiliyatlar orasida ijodiy qibiliyatlar ham mavjud bo‘ladi va ushbu qibiliyatni shakllantirish kerak. Ushbu muammoni hal etish uchun juda erta yoshdan boshlash kerak, chunki boladagi ijodkorlik erta maktab yoshidan boshlanadi.

Mashhur rus olimlari L. S. Vygotskiy [9-486-b], A.V.Zaporojets [13, 483-b], A.N.Leontiev [8, 586-b], D.B.Elkoninlar erta maktab yoshini idrokning murakkab turlarini shakllantirish uchun potensial imkoniyatlar beruvchi davr deya hisoblashgan. Chunki erta maktab yoshidagi bolalarning tasavvuri va fikrlash jarayonidagi qibiliyatları hamda ko‘nikmalari ularning butun umri davomida shundayligicha shakllanadi. Erta maktab yoshidagi bolalarning yosh xususiyatlari orasidagi oziga xoslik bu uning, fikrlashi, taqlid qilishga moyilligi, hissiy beriluvchanligi va ta’sirchanligi, shuning bilan birga ongning jadal sur’at bilan shakllanishidir. Shunday ekan ushbu yoshda bola qibiliyatlarini shakllantirish uchun beriladigan ta’lim-tarbiya jarayoni juda muhim rol o‘ynaydi.

Shuni ta’kidlab o‘tish lozimki, erta maktab yoshidagi bolalarda:

- aqliy rivojlanish juda yuqori darajada bo‘ladi;
- intensivlik va ixtiyoriy xotira mavjud bo‘ladi;
- kognitiv motivatsiya rivojlanadi;
- fikrlashning vizual-majoziy turi shakllandи;
- nutq faoliyati yaxshilanadi;
- yangi narsalarni o‘rganishda qiziqishi va faolligi ortadi;

Shunday ekan boladagi ijodkorlikni rivojlantirish uchun, rivojlantirilishi lozim bo‘lgan faoliyat turlariga quyidagilarni kiritishimiz mumkin: tinglash, ko‘rish, eslash va tahlil qilish faoliyati. Ushbu faoliyat turlarini bolaning kundalik hayotida ko‘p marotaba qo‘llash undagi ijodkorlikning shakllanishiga hamda yangi narsalarni yaratishga bo‘lgan ishtiyoqini oshirishga xizmat qiladi.

Asosiy qism

Pedagogika fanida “shakllanish” atamasi mavjud bo‘lib, ushbu atamaga L.V. Bezrukova, V.N.Sadovskiylar shunday ta’rif berishgan: “Shakllanish- bola shaxsiyatini rivojlantirishning maqsadli boshqarilishi hamda, uning ma’lum bir fazilatlarini yaxshilashga qaratilgan pedagogik jarayondir”. T. G. Kazakova, I. V. Sushkovalarning fikriga ko‘ra, o‘qituvchining maxsus tashkil etilgan ta’lim faoliyati bola shaxsiy xususiyatlari rivojlanishining natijasi deb hisoblash mumkin. A.V.Ambetal, B. G. Ananyev olib borgan tadqiqot natijalariga ko‘ra, “shakllanish” tushunchasi qadriyatlar tizimini shakllantirish maqsadida amalga oshiriladigan shakllar, usullar va vositalardan iborat bo‘lib, ular asosida o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma, malaka, qibiliyatları hamda xotira va fikrlash qibiliyatları rivojlanadi. L. G. Veretennikova, E. V.

Solovyovalarning fikriga ko‘ra shakllanish jarayoni bola shaxsiyatini integral va barqaror tizim sifatida yagona shaklga aylantiradi. O‘rganilayotgan jarayonning harakatlantiruvchi kuchi tashqi va ichki bo‘lib, ushbu ikkala holatda ham shakllanish jarayoni pedagogikaning hal etilishi lozim bo‘lgan dolzarb muammosiga aylanmoqda. Ichki harakatlantiruvchi kuch- bolaning o‘z atrofidagi dunyoni anglashi, bilim, ko‘nikma va malakalarni rivojlantirishi jarayonidir. Tashqi harakatlantiruvchi kuch esa, bola shaxsiyatiga kattalarning, do‘stlarining, atrofidagi jamiyatning ta’sir etishidir.

O‘rganilayotgan muammoni nazariy va uslubiy jihatdan asoslashimiz uchun, “intelekt” atamasining mazmuni bilan kengroq tanishishimiz lozim. Falsafiy lug‘atga ko‘ra, intelekt - harakat maydoni, ma’lum bir vaziyatning tarqalish chegarasidir. Intelekt insonning erkinligi va kuchini fazoviy ifodalaydi, mukammalligini anglatadi. Bundan tashqari, intelekt insonning cheklangan dunyo ichidagi barcha imkoniyatlardan foydalana olishi hamda imkoniyatlarning boshqa shakllarda qo‘llay olishini ifodalaydi. D. V. Dmitriev tomonidan tahlil qilingan izohli lug‘atda intelekt so‘ziga quyidagicha ta’rif berilgan: Intelekt - inson hayot faoliyatining jismoniy va ma’naviy hayot sohasi hamda, biror narsaning rivojlanish chegarasidir. [12, 584-b]

Pedagogikada “intelekt”- insonning xarakteristikalari majmui sifatida tushuniladi. Unga shaxsning xulq-atvori, motivatsiyasi, muammolarni hal etish usullari, axborotlarni idrok etishi va qayta o‘zlashtirishi kabilar kiradi. Bu xususiyatlar har bir shaxsning shaxsiy yondashuvida namoyon bo‘ladi.

Shaxsiy yondashuvning bir nechta turlari mavjud:

- Ehtiyojij – motivatsion. Shaxsning ehtiyojlariga qaratilgan motivlari asosida ehtiyojni qondirish maqsadida amalga oshiriladigan faoliyatli yo‘nalishlari.
- Hissiy-irodaviy. Shaxsning atrofidagi dunyoga bo‘lgan munosabati, voqeа-hodislalarga subyektiv reaksiya bildirishi, intilishlari va shaxsiy tajribalaridir.
- Kognitiv-anglash. Ma’lumotlarni qabul qilish, tahrirlash, saqlash, ko‘paytirish va o‘zgartirishdir.
- Axloqiy-tarbiyaviy. Inson harakatlarini belgilangan odat va an’analarga muvofiq, ijtimoiy lashuv tamoyili asosida me’yoriy tartib-qoidalarga muvofiqlashtirish.
- Eksiztensial-borliq. O‘z ichki dunyosini boshqalarga taqdim eta olishi.
- Samarali- amaliy. Shaxsning o‘zini amaliy faoliyatda namoyon qila olishi.
- Shaxslararo-ijtimoy. Shaxsning boshqa bir shaxslar o‘rtasidagi axborot almashinuvini ta’minlaydigan munosabatda bo‘lishi.

Boshqa bir qancha olimlar ham ushbu muammo bo‘yicha tadqiqot ishlarini olib borishgan. Jumladan, V.F.Bekhterev bolaning ijodkorligini, B.G.An’anyev esa, bola munosbatlarini faolligini, D.B. Bogoyavlenskaya intelektual faoliyat turlarini o‘rgangan. [5, 475]

Aql-idrok va ijodkorlik muammosi qadim zamonlardan buyon olimlar va faylasuflar tomonidan o‘rganib kelinmoqda. Jumladan Aristotel va Aflatun o‘z asarlarida ham ushbu muammoga oid bo‘lgan ma’lumotlarni ko‘rishimiz mumkin. Bizning tadqiqot ishimizda

Plotonning fikrlari muhim rol o‘ynaydi. Uning fikricha, dialektik suhbat fikr yuritishni rag‘batlantiradi, bilish qobiliyatini rivojlantiradi. Aristotel kognitiv jarayonni bilishning asosi deb hisoblagan bo‘lsada, uning mohiyati faqatgina aql bilan idrok etilishini aytgan. Haqiqiy bilim manbai sifatida idrok qilish qobiliyatini misol qilib keltirgan. Kantning falsafiy qarashlarida insonning kognitiv salohiyati birinchi marta yechilishi lozim bo‘lgan muammo sifatida qaralgan. Kegel esa, bolaning dialektik dunyoqarashini, o‘z tadqiqot ishida tahlil etib o‘rgangan. U barcha narsani qarama-qarshilik qoidasiga bo‘ysunadi deb hisoblagan va ushbu qoida butun dunyoni harakatga keltiruvchi kuch sifatida namoyon bo‘ladi deb ta’kidlagan.

N.A. Berdyaev, K. Jung va boshqalarning falsafiy qarashlarida, ijodkorlik - inson va jamiyatga xos bo‘lgan tushuncha sifatida qaraladi hamda u rivojlanishning mahsuldor mexanizmi sifatida e’tirof etiladi. [4, 416]

Tadqiq etilgan muammoning nazariy va uslubiy jihatni bilan tanishar ekanmiz, ushbu muammo yuzasidan fikr yuritgan pedagoglarning fikrlari muhim ahamiyatga egadir. Kamenskiy tabiatga mos keladigan ta’lim asoslarini ishlab chiqdi. Uning fikrlashicha, bolaning tabiiy kuchi va qobiliyatları bola shaxsiyatini tabiiy va erkin namoyon qilishiga yordam beradi. Bola shaxsiyatining shakllanishi bolaning tevarak-atrofini jonli idrok eta olishiga bog‘liq bo‘ladi.

Intelektual kreativ yondashuv tushunchasi nazariy jihatdan tahlil etilganda, ma’lumotlar yetarlicha emasligini ko‘rishimiz mumkin. Biroq quyidagi tushunchalar ushbu kreativ yondashuvdagi semantik maydonni tashkil etuvchi tushunchalar hisoblanadi. M.I.Lisinaning tadqiqotlari bo‘yicha intelektual kreativlikni- intelektual ijodiy salohiyat, shaxsning qobiliyatları, intelektual yondashuv, kognitiv faoliyat tashkil etadi. [7, 134]

O‘z davrining mashhur psixolog D. E. Bogoyavlenskaya [5, 475-b], A. N. Leontyev [8, 586-b], Ya E. Ponomarev [10, 21-b]. L. S. Vygotskiy [11, 94-b] larning fikriga ko‘ra ijodkorlikka -insonning aqliy mahsuli sifatida qaraladi. Shuningdek, ijodkorlik- shaxs mavjudligining zaruriy sharti sifatida e’tirof etilib, kundalik hayotda uchraydigan har bir narsa va hodisalarga yangicha qarashda namoyon bo‘ladi. “**Intelekt**” va “**Kreativlik**” tushunchalari pedagogika va psixologiya fanining assosiy tushunchalaridan biri bo‘lib, bu ikki tushunchaning o‘zaro kombinatsiyasi shaxsning shaxsiy fazilatlari va qobiliyatlarini shakllantirish uchun zarur bo‘lgan tushunchani ifodalaydi. Intelekt va ijodkorlik o‘rtasidagi aloqa va hamkorlik, o‘quvchilarning kognitiv sifatlarini hamda ijodkorlik faoliyatini oshirishga yordam beradi. Bu esa o‘quvchilarning kelajakdagi faoliyatini davom ettirishi uchun shart-sharoitlar yaratadi.

K.D.Ushinskiy bolaning intelektual ijodiy rivojlanishida yangi bilimlarni mustaqil egallashga yordam beruvchi mashg‘ulotlardan foydalangan ma’qul deydi. Uning fikriga ko‘ra, muammoli vaziyatlar bolaning bilish qobiliyatini va tafakkurini rivojlantirib, ushbu muammoga yechim izlashga asoslangan.

A.S.Makarenkoning fikriga ko‘ra, o‘quvchilarning intelektual ijodiy tarafdan shakllantirish uchun, ularning shaxsiyati haqida to‘xtalib o‘tmaslik mumkin emas. Bolaning bolalaik davridagi erkinligi va intelektual ijodiy faoliyatni kayfiyatiga, ijodiy muhitdagi

faoliyatiga, hayotida o‘yin faoliyaatining ustunligiga bog‘liq bo‘ladi. I. Arnoldova [1, 218-b], Yu P. Azarova [2,209-b], T. I. Baklanova [3, 142-b], S. N. Ikonnikova [6, 385-b], G. A. Prazdnikova, Yu A. Streltsova larning konseptual asosini bola tarbiyasi va uning ijodiy hohishlari tashkil etadi.

Shunday ekan boladagi ijodkorlikni rivojlantirish uchun, rivojlantirilishi lozim bo‘lgan faoliyat turlariga quyidagilarni kiritishimiz mumkin: tinglash, ko‘rish, eslash va tahlil qilish faoliyati. Ushbu faoliyat turlarini bolaning kundalik hayotida ko‘p marotaba qo‘llash undagi ijodkorlikning shakllanishiga hamda yangi narsalarni yaratishga bo‘lgan ishtiyoqini oshirishga xizmat qiladi.

Xulosa

Xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkinki, erta mакtab yoshidagi o‘quvchilarda yuqoridagi sifatlardan tashqari, qat’iyatlilik, yuqori darajadagi faollik, spontan qarorlarga tayyorlik, tashabbuskorlik va zukkolik, qiyinchiliklarni yengish, o‘zgartirishlar kiritish, o‘zini turli xil obrazlarda tasavvur eta olish hamda boshqalarga yordam bera olish sifatlarining mavjudligini ko‘rishimiz mumkin. Yuqoridagi barcha xususiyatlar boladagi ijodkorlikni shakllantirish uchun zamin yaratadi hamda ushbu xislatlar orqali kichik bolalardan buyuk “yaratuvchi” shaxsni shakllantirishimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- 1.Арнольдова А. И. Человек и мир культуры / А. И. Арнольдова. –Москва, 1992. – 218 с.
2. Азаров Ю. П. Семейная педагогика / Ю. П. Азаров. – Москва: Просвещение, 1994. – 254 с 209.
- 3.Бакланова Т. И. Музыкальный мир: Пособие для детей 5–7 лет / Т. И.Бакланова. – Москва, 2014. – 142 с.
- 4.Бердяев Н. А. Смысл творчества / Н. А. Бердяев. – Москва: Высш. шк., 2006. – 416 с.
- 5.Богоявленская Д. Б. Психология творческих способностей /Д. Б. Богоявленская. – Москва: Просвещение, 2002. – 475 с.
- 6.Изотова Е. И. Эмоциональная сфера ребенка: теория и практика / Е. И. Изотова, Е. В Никифорова. – Москва: Академия, 2004. 385 с.
- 7.Лисина М. И. Специфика восприятия и общения у дошкольников / М. И. Лисина, Х. Т. Шеръязданова. – Алма-Ата: Мектеп, 1989. – 134 с.
- 8.Леонтьев А. Н. Избранное / А. Н. Леонтьев. – Москва, 1993. –586
- 9.Выготский Л. С. Мысление и речь / Л. С. Выготский. – Москва, 1996.– 486 с.с.
- 10.Пономарев Я. А. Психология творчества / Я. А. Пономарев // Тенденции развития психологической науки. – Москва: Наука, 1988. 21 с
- 11.Выготский Л.С. Воображение и творчество в детском возрасте: Психол. очерк: Кн. для учителя / Л. С. Выготский. – Москва: Просвещение, 1991. 94 с.

12. Толковый словарь русского языка / под ред. Д. В. Дмитриева. –Астрель, АСТ, Lingua, 2003. – 1584 с

13. Запорожец А. В. Избранные психологические труды / А. В. Запорожец.– В 2-х т. – Москва, 1986. – 483 с